

Ammiak ishlab chiqarishda chaqmoq qo'llanildi

// 08.01.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ammiak-ishlab-chiqarishda-chaqmoq-qo'llanildi>



Buffalo universiteti mutaxassislari suv va havodan ammiak ishlab chiqarish imkonini beruvchi plazma-elektrokimyoviy reaktorni yaratishdi. Yangi texnologiya qishloq xo'jaligidagi uglerod izini kamaytirishga va resurslari cheklangn mamlakatlar uchun o'g'itlarni arzonroq qilishiga yordam berishi mumkin. Olimlar ushbu usulni ammiak sintezi uchun an'anaviy ravishda ishlatiladigan Xaber-Bosh jarayoniga muqobil sifatida taklif qilishgan. Usul ikki bosqichdan iborat bo'lib, yuqori harorat va bosimdan foydalanishni oldini oladi va shu bilan energiya xarajatlarini kamaytiradi.

- Birinchi bosqich - plazma zaryadi ta'sirida nam havoning azot oksidlariga aylanishi;
- Ikkinchi bosqich -stabilashtirilgan azot oksididan palladiy va mis katalizatorlari yordamida ammiak olish.

Yangi uskunaning quvvati kichik bo'lishi mumkin, biroq olimlarning ta'kidlashicha, ularning ixchamligi va qayta tiklanadigan energiya manbalarida ishlash imkoniyati tufayli sanoat ammiaki cheklangan joylarda qo'llanilishi mumkin.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati